ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

# Journal of national CULTURE

Received: 14.05.2025 · Accepted: 22.07.2025 · Published: 31.08.2025
DOI: https://doi.org/10.64681/a4x93k43

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(4), 2025
www.jnculture.uz

# O‘zbek maqomlarida usul turlari

(The Types of Usul in Uzbek Maqoms)

Marufjon Rasulov

Faculty of Sports and Arts, Andijan State University,
170100, University, 129.
Uzbekistan/Andijan

**Annotatsiya**

Maqolada o‘zbek maqom san’ati ijrochilik amaliyotida *doira usullari*ning turlari, shakllari va mahalliy xususiyatlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Xususan, Buxoro Shashmaqom turkumida *Saraxbor* va uning *tarona*si, *Nasr* va uning *tarona*si; Xorazm maqomlarida — *Tani maqom* va *Iyfor*; Farg‘ona–Toshkent maqom turkumida esa *Bayot I–V*, *Chorgoh I–V*, *Husayniy Dugoh I–VII* hamda *Shahnozi Gulyar* ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, *Shahnozi Gulyar*ning doira usullari tarixiy rivojlanishi, shakli, tempi, siklik an’anadagi roli va vazifalari bo‘yicha qiyosiy tahlillar keltiriladi.

Maqolaning muhokama qismida Buxoro Shashmaqomining boshqa maqom turkumlariga ta’siri, shuningdek, har bir turkumning umumiy va o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Mahalliy folklorizm ohangi ijrochilik amaliyotidagi *vaxaviy* uslublarning o‘ziga xosligi va vazifalari bilan bog‘liq holda alohida ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. Maqomlarni o‘rganish milliy musiqa merosining bir qismi sifatida bugungi kunda har bir musiqashunos va maqomshunos oldida turgan eng muhim va mas’uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqola, qisman bo‘lsa-da, zamonaviy an’anaviy musiqachilar va baxshilarning maqom ilmini nazariy va amaliy jihatdan mukammal egallashlariga ko‘maklashishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Maqomat, Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg‘ona–Toshkent maqomlari, Vaxaviy, Nasr, Mushkilot, Ufar.

**Abstract**

This article provides detailed information on the types, forms, and local characteristics of *doyra usuls* in the performance practice of Uzbek maqom art. In particular, the Bukhara Shashmaqom series includes *Sarakhbor* and its *tarona*, *Nasr* and its *tarona*; the Khorezm maqoms include *Tani maqom* and *Iyfor*; while the Fergana–Tashkent maqom series includes *Bayot I–V*, *Chorgoh I–V*, *Husayniy Dugoh I–VII*, and *Shahnozi Gulyar*. Comparative analyses are presented regarding the history, form, tempo, and the role and functions of the *doyra usuls* of *Shahnozi Gulyar* within the cyclical tradition.

The discussion highlights the influence of Bukhara Shashmaqom on other Uzbek maqom series, as well as the common and distinctive features of each. It is emphasized that the color of local folklorism is of primary importance, stemming from the uniqueness and local functions of *vakhavi* styles in performance practice. The study of maqoms, as part of the national musical heritage, is recognized as one of the most significant and responsible tasks facing musicologists and maqom scholars today. This article, albeit partially, aims to assist contemporary traditional musicians and spiritual singers in mastering the science of maqom both theoretically and practically.

**Keywords:** Maqomat, Bukhara Shashmaqom, Khorezm maqoms, Fergana–Tashkent maqoms, Vakhavi, Nasr, Mushkilot, Ufar.

**Аннотация**

В статье представлена подробная информация о типах, формах и локальных особенностях *усулей дойры* в исполнительской практике узбекского макомного искусства. В частности, в бухарской серии Шашмакама рассматриваются *Сарахбор* и его *тарона*, *Наср* и его *тарона*; в хорезмских макомах — *Тани маком* и *Ийфор*; а в фергано–ташкентской серии макомов — *Байот I–V*, *Чоргох I–V*, *Хусайний Дугох I–VII* и *Шахнозий Гуляр*. Проведен сравнительный анализ истории, формы, темпа, а также роли и функций *усулей дойры* в *Шахнозий Гуляр* в рамках циклической традиции.

В дискуссионной части статьи освещается влияние бухарского Шашмакама на другие серии узбекских макомов, а также выявляются их общие и отличительные особенности. Подчеркивается, что колорит локального фольклоризма имеет первостепенное значение и обусловлен уникальностью и функциями *вахавий* стилей в исполнительской практике. Изучение макомов как части национального музыкального наследия признается одной из наиболее значимых и ответственных задач, стоящих сегодня перед музыковедами и макомоведами. Настоящая статья, хотя и частично, призвана содействовать современным исполнителям традиционной музыки и бакши в совершенствовании теоретического и практического освоения науки о макоме.

**Ключевые слова:** Макомат, бухарский Шашмакам, хорезмские макомы, фергано–ташкентские макомы, вахавий, Наср, Мушкилот, Уфар.

Usul - musiqa san’atining qaysi bir yo‘nalishi, turi, janri bo‘lmasin, ularning ikki asosiy jihatlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etib kelgan. U ikki asosiy jihatlarning har biri, azaldan shaklu-shamoili, qiyofasi, tarkibi bilan o‘ziga xosligini shakllantirib kelgan. Usul esa, bevosita o‘z tarkibidagi naqrlar shodasining ma’no

kesimida tartiblashishi va muayyan qoliplarga asoslangan holda yaratilishi bilan xarakterlangan. Ya'ni, usul avvalo muayyan bir tuzilma. O'zining shakli, va o'ziga xos formulasiga ega. Shu bois usullarning ijro amaliyotida rang-barang namunalari shakllari, oddiy namunalaridan murakkab tarkibli usullargacha o'ziga xos ko'rinishda qo'llanilib kelingan.

O'zbek doyra [1, b. 21] usullarini ilmiy tadqiq etgan musiqashunos olim Ilyos Akbarov o'zining tadqiqotlarimda bu masala bo'yicha quyidagi fikrlarni keltiradi. - "O'zbek muzikasining turli janrlarida har xil xarakterda bo'lgan usullardan foydalaniladi.

Buxoro va Xorazm maqomlarining usullari birmuncha murakkabdir. Bu usullarning hajmi katta, aksari ko'p taktlik bo'ladi. Maqomlarning usullari qat'iy va tartiblidir. Har bir maqomning har bir qismining o'z usuli bor" [2, b. 7] – deb o'zbek musiqasining oddiy xalq yo'li hamda mumtoz, ya'ni maqom yo'llarida qo'llanilgan usullar o'zining kitobida keltirib o'tgan.

Mumtoz musiqa, ya'ni maqomlar tizimiga mansub bo'lgan usullar alohida musiqashunos olimlar risolalarida o'rganilib kelingan. O'zbek mumtoz mukiqa usullarini Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida 24 ta namunalarini keltirib o'tgan. Ularga muayyan sharh berar ekan quyidagicha izohlab o'tadi: - "Mana shul (tan, tana, tanan, tananan) shakllarida boylangan niqralarni belgili bir tartibda yig'ib musiqiy usullarni maydonga chiqaradirlar. ...Mana shunday qilib usul doiralari tuzadirlar. Usul doiralari ba'zilariga ko'ra o'n besh, ba'zilariga ko'ra o'n yetti, ba'zilariga ko'ra yigirma to'rt – yigirma yettidir" [3, b. 7]– deb, shu davr ijro amaliyotida mashhur blgan usullarni nomlari, usullar tarkibidagi naqralar hajmi va ularning sonini keltirib o'tadi. Eng muhimi musiqiy usullarning kelib chiqishi va uning mumtoz musiqa amaliyotidagi rivojida badiiy adabiyotning eng tartibli asosi bo'lmish aruz bahrlari bilan uyog'un ekanligini ta'kidlab o'tadi. Xususan: "Musiqamizda usul doiralari aruzdagi "bahr"larga o'xshaydir. Shu usullarg'a o'lchab, turli kuylar bog'lamoq musiqiy ustodlarining

musiqiy olimlarining ishi bo‘lib qoladir. Ko‘riladirkim, musiqiy olimlarimiz musiqada usul belgilaganda she’rda arabning aruz tartibini qabul qilganlar (sabab-i hafif, sabab-i saqil, vatad, fosila) kabi taqsim va istilohlar ham aruznikidir. Mana shuni ko‘rgan ko‘p ilmiy kishilar sharq musiqasi bilan arab aruzi orasida qattiq bir boylanish bordir deb ishonadirlar. [3, b. 7] Ushbu fikr bilan Abdurauf Fitrat mumtoz musiqaning usullar tizimini bevosita aruz bahridagi tarkib, tartibning o‘ziga xos usuli ekanligiga ishora qiladi. Darhaqiqat, olimning bildirgan ushbu fikri musiqashunos olimlar tomonidan inkor etilmagan. Aksincha usullarning mumtoz adabiyot bilan hamnafis holda bir-biridan andoza olganligi va uning ijodiyotida muqobil usullar uyg‘unligida yaratilgan har qanday ijodiy namunalarni mukammal asarlar sifatida qadr topishini e’tirof etib o‘tganlar. Bu jihatlarning musiqa va adabiy ijodda g0zal uyg‘un topishiga asoslar ko‘rsatib beriladi. Jumladan: Musiqashunos olim O.Matyoqubov o‘zining “Maqomot” kitobida quyidagicha sharhlar, uning formulasining uyg‘unlikgini ko‘rsatib o‘tadi: “Musiqa va she’riy aruzda qisqa – cho‘ziqlik munosabatlari uchta asosiy birlikka uyg‘unlashadi va ular sabab, vatad, fosila deb yuritiladi:

– sabab shartli ravishda olingan dastlabki cho‘ziq bo‘g‘in birligi musiqiyda “tan”, ta-na” deyiladi;

– vatad davomati sababga teng bo‘lgan ikki zarb (yoki she’rda ikki bo‘g‘in) “ta-nan”, “tan-na” deb belgilanadi”

– Fosila sabab hamda vatadning bir bo‘lagi ulanishidan kelib chiqadigan birlik, “ta-na-nan” yoki “ta-na-na-nan” shaklida ifodalanadi”. [5, b. 161]

Musiqada bu jarayon oddiy va mutanosib holatda yuzaga kelganligi “Maqomlar” kitobida yoroitib beriladi. Xususan I.Rajabov yozadi: - “Yozma manbalarda kursatilishicha, birinchi yaratilgan musiqa ritmi “Zarbi Qadim” (“Kadimiy zarb”) deb ataladi. Bu ritm, go‘yo inson tomirining uri-shidan olingan bo‘lib, juda sodda “tan-tan” (♩♩) shaklida bo‘lgan. So‘ngra esa ritmlarning murakkabroq shakllari yuzaga kelgan. Masalan, (♫♫)(tana-tana), (♩♩♩) (tan-

tan-tan), (♫♫♩) (tana-tana-tan), (♩♪♩ ) (tanna-tan) va hokazo. Bu ritmlar musiqa asarlari bilan birga yuzaga kelgan bo‘lib, keyinchalik esa Sharq xalqlarida mustaqil doyra usullari tarzida ham ajralib chiqqan. Shunday qilib musiqa asarlari sodda usuldan sekin-asta murakkablashadi va ularning diapazoni kengaya boradi” [4, b. 49]. Adabiy ijodning rivoji murakkab aruz vaznlarining yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lsa, musiqarning mumtoz yo‘nalishidagi mukammal asarlarning naqrlar munosabatidagi mukammallik o‘zining murakkab usullarni yuzaga kelishini ta’minlab beradi.

Musiqaning ushbu shakllanish xususiyatlarini asoslovchi qoidalarni asl negizini muxtasar qiladigan bo‘lsak, maqomshunos olim Is’hoq Rajabovning tadqiqotlarida keltirilgan fikr qanchalar to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilamiz va musiqa ijodiyotining asl qoidalarini sof va mukammal amalda saqlansa har bir davrga mos, zamon ohangiga xos bo‘lgan asarlar yaratilishi muqarrar bo‘ladi. Ya’ni, - “Yoqimli tovushlardan musiqa tovushlari - nag‘malar yuzaga kelgan. Nag‘malardan esa kuy (alhon)lar yaratiladi. Kuy - nag‘malarning cheklangan vaqt o‘lchovlari bo‘lmish ritm (iyqo’)larga buysindirilgan shaklidir. Musiqa tovushlarini paydo bo‘lishi haqidagi olimlar tomonidan berilgan ma’lumotning kiskacha mazmuni shunday” [4, b. 48] – deb musiqaning tovush, ohang va usul birikmalaridan paydo bo‘ladigan mo‘jizaviy unsur ekanligini va ularning muhimligini uqtirib o‘tadilar.

Shu bois manbalarda keltirilgan usullarni, XX asr birinchi choragi davrigacha asosiy usullar sifatida rivojlanib kelganligi hamda amaliyot ijrolarida ommalashgan deb qabul qilish o‘rinlidir. Chunki, bu usullar o‘tmish risolalarida ham zikr etilgan bo‘lib, asosiy va mukammalligini ko‘rsatib turadi. Qayd etish jloizki aynan mana shu davrdan boshlab o‘zbek mumtoz musiqasi rivojida usullarga nisbatan ijodiy jarayonlar o‘z samarsini ko‘rsatgan. Deyarli bir asr davomida usullarning ijro amaliyotining rivojini namoyon etadigan yangi namunalari yaratilib amaliyotga joriy qilingan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Usul mezoni o‘zining keng qamrovligi, asos jihatlarini o‘zida mujassam etganligi, ijroda yetakchi omillarni bajarishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois avvalo, mumtoz usullar xususida ularning tarkiban uyg‘unlashgan mezonlari va bevosita turkumiylik tizimlanishi borasida fikr yuritamiz. Zero, o‘zbek maqomotining lad va usul jihatlari o‘zining murakkabligi va mukammalligi bilan e’tirof etilib kelingan.

*Xulosa.* O‘zbek maqomoti o‘zining rang-barangligi bilan ijro amaliyotida alohida o‘ringa ega. Har bir maqom navi o‘zining nazariy jihatlari nuqtai nazardan lad va usullar tarkibiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu shundan iboratki lad tizimi bevosita uning ohang rivoji mezonlarining talqini bilan bog‘liq bo‘ladigan bo‘lsa, usul tizimi ularning vaqt jarayonlarini muvofiqlashtirish mezonlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Shu tomonlama o‘zbek maqomotidagi Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari yoki Farg‘ona-Toshkent maqomlarining turkumlanish, shakllanish negizida o‘ziga xos usullar asos qilingan. Usullar rivojiga bevosita asarlarning ijodiyoti jarayonlari bilan bog‘liq holatda e’tibor qaratilgan. Avval yakka holda ijod etilgan asarlar ham turli ritmik xususiyatlariga qarab turkum shaklida tizimlashtirilgan.

O‘zbek maqomlarining alohida nav sifatida ko‘rilishida ham usullar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu avvalo usullarning mumtozligi bilan bog‘liq bo‘lsada, ikkinchi jihatlarida lokallik xasusiyatlari ham o‘z ta’sirini ko‘satganligini ko‘rish mumkin. Odatda, mumtoz usullar har bir maqomlarning eng mukammali va milliyligini namoyon etib turadi. Va albatta turkumiylik jihatlarini tartiblash mezonlariga asoslanadi. Shu bilan birga bevosita “usul” jihatini o‘ziga xos rivojlanishiga qaratilgan xususiyatlar bilan ham sug‘orilishi muqarrardir. Bu xususiyatlar usullarning: *o‘ziga xosligida, o‘xshashligida, yangicha yaratilgan nusxalarida, lokallik jihatlarida* (bir usul shashmaqomda va Xorazm maqomlarida o‘ziga xos naqrlari o‘zgargan variantda tarkib topganligi) hamda *ketma-ketligining mutanosibligida* namoyon bo‘ladi.

## Foydalanilgan adabiyot

1. Akbarov I. *Musiqa lug‘ati*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
2. Акбаров И. *Ритмы дойры*. – Тошкент, 1952.
3. Fitrat A. *O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi*. – Toshkent, 1993.
4. Rajabov I. *Maqomlar*. – Toshkent, 2006.
5. Matyoqubov O. *Maqomot*. – Toshkent, 2004.

## References

1. Akbarov, I. *Musiqa lug‘ati* [Music Dictionary]. Tashkent: O‘qituvchi, 1997. (in Uzbek)
2. Akbarov, I. *Ritmy doiry* [Rhythms of the Doira]. Tashkent, 1952. (in Russian)
3. Fitrat, A. *Ozbek klassik musiqasi va uning tarixi* [Uzbek Classical Music and Its History]. Tashkent, 1993. (in Uzbek)
4. Rajabov, I. *Maqomlar* [The Maqoms]. Tashkent, 2006. (in Uzbek)
5. Matyoqubov, O. *Maqomot* [Maqamat]. Tashkent, 2004. (in Uzbek)